



CHIZMACHILIK FANINI AMALIY SAN'AT BILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

*Ashirboyev Azim Ozodovich Nizomiy nomidagi
O'ZMPU Tasviriy san'at va muhandislik kafedrası dotsenti.*

*Dehqonova Zulhumor Odiljon qizi Nizomiy
nomidagi O'ZMPU Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutahasisligi
magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada chizmachilikni amaliy san'at bilan bog'lab o'qitish orqali o'quvchilarning grafik va fazoviy tafakkuri rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikaning afzalligi va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: amaliy ko'nikmalar, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar, loyiha ishlari, 3D modellashtirish, raqamli texnologiyalar, milliy naqshlar, innovatsion metodlar, jamoaviy ishlash, o'rta ta'lim, madaniy meros, dizayn, estetik did.

Annotation. This article analyzes the development of students' graphic and spatial thinking through teaching drawing in connection with applied arts, as well as the advantages and limitations of the methodology developed on the basis of an integrative approach.

Keywords: practical skills, creative thinking, pedagogical technologies, project works, 3D modeling, digital technologies, national patterns, innovative methods, teamwork, secondary education, cultural heritage, design, aesthetic taste.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие графического и пространственного мышления учащихся через обучение черчению в связи с



прикладным искусством, а также рассматриваются преимущества и недостатки методики, разработанной на основе интегративного подхода.

Ключевые слова: практические навыки, творческое мышление, педагогические технологии, проектные работы, 3D-моделирование, цифровые технологии, национальные орнаменты, инновационные методы, командная работа, среднее образование, культурное наследие, дизайн, эстетический вкус.


Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari tez sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda faqat nazariy bilimlarni yetkazishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bu o'qituvchidan yuqori malaka, amaliy ko'nikma talab qiladi. O'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirib, ularni grafik topshiriqlarni to'g'ri bajarishga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ijodiy yondashuvini, mustaqil fikrlashini, grafik savodxonligini rivojlantirishga undaydi. Shuningdek, fazoviy tasavvurni chuqurlashtirish, texnik tafakkurni shakllantirish, grafik madaniyatni oshirish ham chizmachilik fanining asosiy vazifalaridan biridir va buni amaliy san'at negizida ko'rish mumkin. Amaliy san'at elementlarini dars jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarda predmetga qiziqish ortadi, ular o'z qo'li bilan mahsulot yaratishga intiladilar.

Chizmachilik o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liq bo'lib, bu jarayonda milliy meros, tarixiy an'analar hamda hunarmandchilik elementlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Milliy naqshlar va ornamentlar asosida texnik chizmalar yaratish o'quvchilarning estetik didini rivojlantirib, madaniy qadriyatlarni anglashga xizmat qiladi.



¹Chizmachilik fani bugungi kunda nafaqat texnik bilimlarni o'rgatish vositasi, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ijodiy muammolariga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish hamda real hayotga mos loyihalar yaratishga yo'naltiruvchi muhim ta'lim yo'nalishi hisoblanadi. Dars jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish o'quvchilarda grafik ko'nikmalarni mustahkamlaydi, tasavvur doirasini kengaytiradi va yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Amaliy san'at elementlari, loyiha ishlari, mustaqil topshiriqlar, didaktik o'yinlar hamda innovatsion metodlardan foydalanish chizmachilik fanining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, jamoaviy ishlar o'quvchilarda hamkorlik, fikr almashish va kreativ yechimlar topish ko'nikmasini shakllantiradi. Darslarning interfaolligi va individual yondashuv tamoyillariga amal qilinishi esa har bir o'quvchining shaxsiy ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, chizmachilik fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish o'quvchilarning umumiy fikrlash madaniyatini yuksaltirishda muhim omildir.

Chizmachilik san'at va texnik fanlar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib, amaliy san'at buyumlarini yaratishda asosiy o'rin tutadi. Buyumning shakli, o'lchami va konstruktsiyasi chizma orqali aniqlanadi. Tarixiy manbalarda kulolchilik, kandakorlik, yog'och o'ymakorligi va zargarlikda avval chizma



¹ Chizmachilik darslarida amaliy san'at elementlaridan foydalanib talabalarni ijodiy tafakkurga yo'naltirish. (2023). *Ta'lim Sanoati*, 1(2), 45–53. O'zbekiston, Qarshi. <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/114>



tayyorlanib keyin ijroga o'tkazilganligi qayd etilgan. Bugungi kunda ham ushbu jarayon raqamli grafik dasturlar asosida davom etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, amaliy san'at sohasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada ortgan.

1-rasm

Milliy an'analar bilan zamonaviy dizayn uyg'unlashuvi yangi mahsulotlarga bo'lgan xalqaro qiziqishni oshirmoqda. Chizmachilik fani esa san'at buyumlarini estetik va funksional jihatdan mukammallashtirish uchun xizmat qiladi (1-rasm). Misol uchun naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, misgarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppido'zlik, tikuvchilik va boshqa xalq amaliy san'ati, hamda arxitektura dizaynida material tanlash, o'lchamlar va texnologik jarayonlar chizma asosida belgilanishi buyum sifatini ta'minlaydi. Buning uchun har qanday amaliy san'at ustasi chizmachilik ilmini egallagan bo'lishi zarur, chunki aynan chizma orqali u yaratadigan buyumning ichki mohiyatini anglaydi, jarayonda adashmaydi va har bir modelni qonun-qoidalarga tayangan holda mukammal shakllantiradi. Shu sababli O'zbekistonda hunarmandchilikning rivoji uchun chizmachilik metodlarini va yangi texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy ta'lim yondashuvlari doirasida chizmachilik fanini kompyuter texnologiyalari, xususan, 3D modellashtirish dasturlari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarga buyumlarning real ko'rinishlarini yaratish imkonini beradi hamda ularni arxitektura, dizayn va boshqa sohalarga tayyorlaydi. Bunday dasturlar yordamida talabalar yaratmoqchi bo'lgan buyumlarini oldindan ko'ra oladi, bu esa jarayonni ancha yengillashtiradi. Ushbu imkoniyatdan dars jarayonida foydalanish esa zamonaviy pedagogik texnologiyaning amaliy ko'rinishidir. Pedagogik texnologiyalarning asosiy afzalliklaridan biri o'quvchilarning mustaqilligini oshirishdir. Loyihaviy topshiriqlar orqali ular ijodiy fikrlash va amaliy faoliyatni



rivojlantiradi. O‘zbekistonda ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-sonli Farmoni, shuningdek, 2021-yil 19-oktabrdagi PQ-5100-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish strategiyasi” da raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish va zamonaviy o‘qitish uslublaridan foydalanish belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan chizmachilik fanining davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida ham raqamli grafik vositalardan foydalanish, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish va amaliy topshiriqlar asosida o‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirish talab etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik fanini o‘qitishda amaliy yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Loyihaviy topshiriqlar, 3D modellashtirish va raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarga real ko‘rinishli chizmalarni yaratish imkonini beradi, ularni hunarmandchilik, arxitektura va dizayn kabi sohalarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, jamoaviy ishlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Maqolada yoritilgan yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy va texnik salohiyatini oshirishga, shuningdek, chizmachilik fanining amaliy va madaniy ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, milliy an‘analari va zamonaviy dizayn elementlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki estetik didini ham rivojlantiradi. Bu esa ularni kelajakda

² <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalar-asosida-chizmachilik-bo-yicha-test-va-topshiriqlar-tuzish-usullari>



nafaqat professional sohalarda, balki ijodiy loyihalarda ham o‘zini erkin ifoda eta oladigan, mustaqil va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yodgorov J. Geometrik va proyeksion chizmachilik. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Murodov Sh. va boshqalar. Topografik chizmachilik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2009.
3. Yodgorov J. Mashinasozlik chizmachiligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
4. Rahmonov I., Valiyev A. Chizmachilik. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2011.
5. Rahmonov I. va boshqalar. Chizmachilik. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2016.
6. *Xalq Amaliy San’atining Chizmachilik Fani Bilan Bog‘liqligi.* — Academic Research in Educational Sciences, www.ares.uz
7. Sultonov M., To‘xtasinov B. “Chizmachilik asoslari”. – T.: “O‘qituvchi”, 2005.
8. Murodov Sh. “Amaliy bezak san’ati tarixi”. – T.: “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi nashriyoti”, 2012.
9. Karimova N. “O‘zbek xalq amaliy san’ati”. – T.: “Sharq”, 2010.
10. Qodirov A. “Tasviriy san’at metodikasi”. – T.: “Cho‘lpon”, 2014.
11. Xolmurodov U. “Chizmachilik va muhandislik grafikasi”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.